


## O'zbek tilining sohada qo'llanishi

Talabaniq mustaqil ishi deganda muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaning ma'lum bir qismini ta'lim oluvchi tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya hamda auditoriyadan tashqari o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida olib borayotgan siyosati, jumladan, oliy ta'limda yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish talabini qo'yimoqdaki, bu oliy ta'lim tizimida mustaqil o'qib izlanish faoliyatiga alohida e'tiborni talab etadi. Mazkur tavsiyalar O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanidan barcha ta'lim yo'nalishlarda ta'lim oluvchi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, talaba mustaqil ta'limining maqsadi ro'yobini ta'minlash yo'lidagi kichik dasturilamadir.

Toirova Guli Ibragimovna

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası  
professori, filologiya fanlari doktori



Globe  
EDIT

Globe  
EDIT



G. I. Toirova

## O'zbek tilining sohada qo'llanishi

MUSTAQIL TA'LIM:  
TAVSIYALAR

**G. I. Toirova**

**O'zbek tilining sohada qo'llanishi**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**G. I. Toirova**

# **O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi**

**MUSTAQIL TA'LIM: TAVSIYALAR**

FOR AUTHOR USE ONLY

**GlobeEdit**

## **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L Publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom

Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-0-64058-1**

Copyright © G. I. Toirova

Copyright © 2022 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**TOIROVA GULI IBRAGIMOVNA**

**MUSTAQIL TA'LIM:  
TAVSIYALAR**

**(O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani misolida)**

Fanning kodi:

Bilim sohasi:

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi:

O'TSQ1002

200000- San'at va gumanitar fanlar

60211400 - Vokal san'ati (turlari bo'yicha)

Mazkur metodik tavsiya nashri uchun BuxDU  
o'quv-metodik kengashi ruxsat bergan (2022-yil  
25 noyabrdagi 1-son yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma)

**BUXORO–2022**

*Talabaning mustaqil ishi deganda muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaning ma'lum bir qismini ta'lim oluvchi tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya hamda auditoriyadan tashqari o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.*

*Zero, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida olib borayotgan siyosati, jumladan, oliy ta'limda yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish talabini qo'ymoqdaki, bu oliy ta'lim tizimida mustaqil o'qib izlanish faoliyatiga alohida e'tiborni talab etadi.*

*Mazkur tavsiyalar O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanidan barcha ta'lim yo'nalishlarda ta'lim oluvchi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, talaba mustaqil ta'limining maqsadi ro'yobini ta'minlash yo'lidagi kichik dasturilamaldir.*

**Mas'ul muharrir**

Pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent **D.N. Yuldasheva.**

**Taqrizchilar**

filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent **Ahmedov A.R.**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD) **Ahmadova U.Sh.**

## KIRISH

Istalgan jamiyatning rivojlanish va yuksalish yo'li talab etganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh malakali mutaxassislarga ehtiyoj seziladi. Vaholanki, jahon miqyosida o'z sohadoshlari bilan bo'ylasha oladigan, intellektual salohiyatli mutaxassisni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar tayyorlash omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida XXI asrning ikkinchi o'n yiligidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassisning shuurida istalgan masala, mohiyat yuzasidan mustaqil, erkin mulohaza yurita olish; ijodiy tafakkur sohibi bo'lish, tadbirkor, faollikni odatiga aylantirish, ezgu xislatlarni tarkib toptirish zarur. Oliy ta'lim tizimiga oid muhim hujjatlarda ta'kidlanganidek: "...o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish"<sup>1</sup>, kundalik yumushlarimiz sirasiga kirishi kerak.

Vaholanki, mustaqillik nafaqat o'zbek xalqiga, balki dunyoning boshqa mintaqalarida yashovchi xalqlarga O'zbekiston xalqi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalarida, jumladan diplomatik, iqtisodiy va ilmiy sohalarida hamkorlik qilishlariga sharoit yaratib berdi. «Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda»<sup>2</sup>ki, bu til mutaxassislari zimmasiga

---

<sup>1</sup> Oliy ta'lim tizimida Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bo'yicha malaka talablari. Toshkent, 2017.

<sup>2</sup> uza.uz. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-сон Қарори.



katta mas'uliyat yuklaydi. Bu mas'uliyatni his etish va belgilangan vazifalarni ado etish uchun ham bo'lajak til mutaxassislarining o'z ustida muntazam ishlashlariga diqqat qaratish muhim.

Yuqorida aytilganlar ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil ta'limga bo'lajak mutaxassis kadrlarning amaliy tayyorgarlik sifati va samaradorligini oshirish omili sifatida qarashni taqozo etadi. Pedagogik ta'limga fan va texnologiyalar yutuqlarining jadal sur'atlar bilan kirib kelishi yuqori malakali ijodkor mutaxassislarining yetishmasligini ko'rsatmoqda. Hozirgi zamonda fan va texnologiya taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy mutaxassis yuqori darajadagi malaka, yangi va tez o'zgarib turgan texnologiyani tushuna bilish xususiyatlariga ega bo'lmog'i lozim.

Bugungi kun talabiga ko'ra, har bir yosh mutaxassis kadr ijodiy fikrlaydigan, tinimsiz izlanadigan, boy tasavvurga ega bo'lmog'i lozim. Zotan, har bir bo'lajak mutaxassis kasbiy mahorat, bilimga ega bo'lishi bilan birga zamonaviy texnologiyalardan ham yuqori darajada foydlana olishlari shart.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, faqat oliy ta'lim professor-o'qituvchisining bergan ma'lumotlari bilan kifoyalanish talabanning sotsial, axloqiy, psixologik, tabiiy, ilmiy, pedagogik, texnologik, fiziologik, ekologik, huquqiy, estetik, badiiy, umummadaniy, informatsion va h.k. jihatlangan yuksalishini to'liq ta'minlay olmaydi. Demak, talabanning mustaqil ta'lim olishiga ehtiyoj seziladi.

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad yuqori malakali, raqobatbardosh, mamlakatda o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning yuqori talablariga, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash hamda talabalarda mustaqil ta'lim olish, ta'lim sifatini boshqargan holda filologik faoliyatning tegishli sohalarida tizimli tahlil qilish va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda professionallik layoqati (kompetentligi)ni tarbiyalash, talabalarining modullarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Mazkur tavsiyalar o'zga tilli guruhlarda turli mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib,

talabalarning Davlat tili asosida bilim , malaka va ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

## **MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI**

Hozirgi vaqtda insonning ilmiy-amaliy tayyorgarlik saviyasi, tafakkur darajasi, intellektual salohiyati, og'zaki nutqi, savodxonlik darajasiga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda talabaga uy vazifasi berish va undan ijobiy natija kutish hamisha ham samara beravermaydi, kuchsizroq talaba uchun hatto bu zararli bo'lishi ham mumkin. Ta'lim oluvchida yetarli bilim zahirasi paydo qilmay turib, ularni yaratishga undasak, yo hech nima chiqmaydi, yoki topshiriqlar nari-beri "uddalanadi".

Ta'lim oluvchilarning tashabbusi yo'qdan paydo bo'lishi mumkin emas. Ularni yaratishga o'rgatish, buning uchun ularda kerakli bilim va tajriba shakllanishi va rivojlanishi kerak<sup>3</sup>.

**Mustaqil ta'lim** – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talabalarga mustaqil ish(ta'lim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta'lim turlari – rang-barang va turli elektron ko'rinishlari – fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

**Mustaqil ta'lim** fanni o'zlashtirishga, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqil ta'lim tizimi o'quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi topshiriqlarni qamrab olishi kerak.

### **Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:**

<sup>3</sup> Терский В.Н., Кель О.С. Игра. Творчество. Жизнь. – М.: Просвещение, 1986. С. 13.

1) yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

2) kerakli ma‘lumotlarni izlab topish, o‘rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

3) axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

4) o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash;

5) elektron o‘quv adabiyotlar va ma‘lumotlar banki bilan ishlash;

6) internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish;

7) berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;


8) ma‘lumotlar bazasini tahlil etish;

9) topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;

10) o‘quv adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni o‘lola bilish;

11) amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarish va mustaqil ishlarni mas‘ul o‘qituvchi va guruh talabalari o‘rtasida himoya qila bilish va h.

Buni quyidagi chizmada ifodalaymiz:



Talabalarining o‘quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o‘quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo‘lishda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o‘ynaydi.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ularning o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash (ilmiy axborotlarni o'qib bilish va h.k), mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruhdoshlari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalari kiradi.

Mustaqil ta'lim natijalari bo'lajak mutaxassisda zaruriy bilim, malaka, ko'nikmalar bilan bir qatorda quyidagi jihatlarni ham tarbiyalashi kerak:

1) *g'oyaviy (dunyovarashi) yo'nalish:* g'oyaviy sobitlik; axloqiy va ma'naviy poklik; ijtimoiy majburiyat va fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-siyosiy faollik;

2) *kasbiy yo'nalish:* kasbiy madaniyat- etika; ijodiy tafakkur; noan'anaviy, yangilikni qabul qilishga tayyorlik; fikrda qat'iylik.

3) *bilish (faoliyati) yo'nalishi:* ilmiy bilishga tashnalik va qiziqish; shaxsiy faollik; yangilikni oldindan sezish; mustaqil ta'lim olish faoliyatiga hamisha ehtiyojmandlik, mustaqil tafakkur.

### **Talabning mustaqil ishini tashkil etishda ilmiy rahbarning vazifalari**

Talabning ilmiy rahbari ishga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

–talaba ishini bajarishi uchun vazifani tasdiqlab berish;

–ishning rejasini tuzishda talabaga yordam berish va adabiyotlarni tavsiya etish;

–talabning rejasini tasdiqlashi, reja bo'yicha muntazam ravishda ishini tekshirishi, maslahatlar va ko'rsatmalar berishi;

–talaba ishini bajarishda tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar berib borishi;

–talaba bilan munosabatda muntazam gumanistik ruhni saqlash va unda o'qishga, uqishga ehtiyoj uyg'ota olish.

### **Talabning mustaqil ishini tashkil etishda talabning vazifalari**

Talaba mustaqil ishini bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi zarur:

–ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;

–ilmiy rahbarning tuzib bergan reja asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;

–o‘rnatilgan tartib bo‘yicha mustaqil ishning hisobini o‘z vaqtida ilmiy rahbar (kafedra)ga taqdim etish.

Talabaning mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik xaritasi asosida olib boruvchi professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talaba mustaqil ishning nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

### **Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari**

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi asoslarini o‘zlashtirish va talabaning ijodiy tayyorgarligi e‘tiborga olinadi.

Talabalarning ijodiy tayyorgarligi – uning kasbiy layoqatligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, uzluksiz ta‘lim olish asosida shakllanadi. Zero, “...uzluksiz mustaqil ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy yetuk shaxsni shakllantirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zaruriy shart-sharoit yaratadi”<sup>4</sup>.

Tabiiyki, mazkur muammoning optimal yechimi ularni mustaqil ta‘lim olish faoliyatiga yo‘naltirish, ularning mustaqil ta‘lim olish faoliyatini faollashtirishdir.

Zero, yuqorida sanab o‘tgan o‘quv fanlarini chuqur o‘zlashtirishda talabalarning ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarda berilgan ilmiy axborotlar sig‘imini kengaytirishi va mustahkamlashda mustaqil ta‘lim olish asosiy rol o‘ynaydi.

Demak, talabalarning mustaqil ta‘lim olish faoliyatini o‘quv adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni o‘qib bilish, amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarish va mustaqil ishlarni mas‘ul o‘qituvchi va guruh talabalari o‘rtasida himoya qila bilish tashkil etadi.

Zero, talabaning mustaqil ta‘lim natijasida tayyorlagan mustaqil ishi muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatidir.

---

<sup>4</sup> Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. –С.88.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda fan o'qituvchisining roli beqiyos. Chunki har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi zarur bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligini oshirib borishi zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi uchun zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda saralab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

### **Mustaqil ta'limning shakliga ko'ra turlari**

Turli ixtisosliklar bo'yicha o'zga tilli guruhlarda tahsil oluvchi talabalar uchun o'zbek tili fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda, uning shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi lozim:

–o'qish bosqichi;

–fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;

–talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);

–fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;

–talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

1) fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

2) amaliy, seminar mashg'ulotlariga maxsus tayyorgarlik ko'rib kelish;

3) ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

4) kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;

5) fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to'plash;

6) badiiy, publisistik asar tili ustida ishlash;

7) amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish;

8) test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;

- 9) ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- 10) muayyan mavzular yuzasidan nostandart topshiriqlar tayyorlash;
- 11) muayyan mavzular mag'zini slaydlarda aks ettirish;
- 12) fan atamalariga doir kichik izohli lug'at tuzish;
- 13) muayyan matn tarkibi yuzasidan grammatik tahlilni amalga oshirish;
- 14) metodik xarakterdagi dars ishlanmalari tayyorlash;
- 15) uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

### ***Mavzuni mustaqil o'zlashtirish***

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch tushunchalar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan o'rinlarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axbarot manbalarini ko'rsatish lozim.

Odatda, talabalar topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch tushunchalarni anglagan holda mavzuga taalluqli atamalarga alohida ahamiyat beradilar. (Bunda muayyan o'rinlarning belgilangan adabiyotlardan aynan ko'chirilmasligiga, mohiyatni talaba o'z tushunganlari asosida yorita olishiga e'tibor beriladi.)

Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash topshirig'i ijrosini fan o'qituvchisi imkon qadar og'zaki savol-javob bilan mustahkamlasa, bu talabaning tafakkur dunyosini yoritishi aniq.

### **Amaliy, seminar mashg'ulotlariga maxsus tayyorgarlik ko'rish**

Amaliy, seminar mashg'ulotlariga maxsus tayyorgarlik ko'rib kelish ham mustaqil ta'limning alohida ko'rinishi bo'lib, bunda talabaning mustaqil holda o'rganganlari amaliy jihatdan mustahkamlanadi. Masalan, "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanidan 1,2-bosqich talabalari quyidagi kabi topshiriqlarni bajarishi mumkin:

***Mavzu: Nutq uslublari. Ilmiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari.***

### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Nutq uslublari haqida nimalarni bilasiz?

2. Nutq uslubi nima?

3. O'zbek tilida qanday nutq uslublari mavjud?

4. Ilmiy uslubning turlari haqida ma'lumot bering.

5. Sof ilmiy uslubning xususiyatlari haqida gapiring.

6. Rasmiy uslub boshqa uslublardan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

7. Ilmiy-ommabop uslubning xususiyatlari haqida gapiring.

**Quyidagi topshiriqlarni mustaqil bajaring.**

**1-topshiriq. Matnni o'qing, ilmiy uslubga xos bo'lgan o'rinlarga diqqat qilib ularni izohlang.**

Bakteriyalarni o'ldiradigan va organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi chidamli qiladigan moddalar qonda bo'ladi. Leykotsit tarkibidagi leykin ham bakteriyalarni o'ldiradi. Shu-ningdek, leykinga o'xshash plakin degan modda qon trombotsitlaridan ajratib olinadi. Qonning tabiiy muhofaza moddalaridan biri betalizin hisoblanadi. Mana shulardan tashqari, qon va organizm suyuqliklarida «ingi-bitolar» deb atalgan moddalar ham topilgan. Ular mikroblarning rivojlanishini va ko'payishini to'xtatibgina qolmay, balki viruslarga qarshi g'oyatda faol ta'sir qiladi. Chunonchi, nukleazalar oqsil tabiatli fermentativ moddalar bo'lib, nuklein kislotalarni parchalaydi. Shunisi ham borki, ribonuklein kislotada RNKning faqat ribonukleaza fermenti, dezoksiribonuklein esa DNKning dezoksiribonukleaza fermentinigina parchalaydi.

**2-topshiriq. Matnni o'qing, unda ishlatilgan atamalarga diqqat qiling va ularning ilmiy uslubni vujudga keltirishdagi o'rnini belgilang.**

Mikrobiologiyaning rivojlanishi tufayli sanoatda turli antibiotiklar, aminokislotalar, stearid garmonlar va enzimlar ishlab chiqarish imkoniyati tug'ildi. Hozirgi vaqtda sintetik yuvuvchi vositalarda gidromentlar ishlatilmoqda. Ular suvda erimaydigan murakkab organik moddalarni katalizator sifatida parchalaydi, natijada hosil bo'lgan «mayda» molekullar suvda yaxshi eriydi. Shu tipdagi ferment (enzim)lardan proteazlar kengroq tarqalgan. Bundan tashqari, amilaza ham keng ishlatilmoqda; bu ferment uglevodorodlarni gidroliz qiladi va yog'ni parchalaydi. Mamlakatimizda yaqindan beri tarkibiga enzim qo'shilgan yuvuvchi vositalarning yangi xillari ishlab chiqarilmoqda. «Sino» pastasi va «Oka» poroshogi turli xil gazlamalar va sun'iy-sintetik tolalardan to'qilgan kiyimlarni yuvish uchun mo'ljallangan.

**3-topshiriq. Iqtisodiyot sohasiga oid quyidagi matnni o'qing. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering. Atamalarni daftaringizga ko'chirib yozing va izohlang.**

Bozorda, tovar muomalasi jarayonida tovar pulga almashinishi (sotish) va pulning tovarga almashinishi (xarid qilish) sodir bo'ladi. Bunga tovar-pul munosabatlari deyiladi. Shuning uchun ham bozor pul vositasida tovarlar oldi-sotdasi asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. U xaridorlar va sotuvchilarni birga qo'shuvchi mexanizm sanaladi.

Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida takror ishlab chiqarishning ayirboshlash bosqichiga xosdir. Bu yerda ayirboshlashni tushunish kerak. Bir tovar to'g'ridan to'g'ri (barter yo'li bilan) ikkinchi bir tovarga al-mash-ganda bozor munosabatlari



yuzaga kelmaydi. Bundan ko`rina-diki, bozorning eng muhim sharti pul bo`lib, tovar ayirboshlashganda u vositachi bo`lishi kerak. Berilgan ta`rifga ko`ra aytish mumkinki, bozor jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimining murakkab iqtisodiy tarkibiy qismidir, chunki u ishlab chiqaruvchi bilan iste`molchi o`rtasida markaziy o`rin tutadi. Demak, jamiyat rivojlanishining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tomonlarini ham qamrab oladi.

*Gaplarni o`qing, og`zaki so`zlashuv uslubiga xos o`rinlarni izohlang.*

***4-topshiriq. Til~nutq~tafakkur~uslub munosabati haqida nazariy bilimlaringizni oshiring va o`z fikrlaringizni misollar asosida bayon eting.***

### **Ma`lum mavzu bo`yicha referat tayyorlash**

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo`lgan biror mavzu bo`yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo`shimcha adabiyotlardan (avtoreferatlar, monografiyalar, ilmiy, ilmiy-metodik maqolalar, internetdan olingan ma`lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallarni yig`adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo`yicha imkon darajasida to`liq, keng ma`lumot berishga harakat qiladi.

**Referat** – asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shakllaridan biri. Shuning uchun referat, konspektdan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, har xil nuqtayi nazarlarni qiyoslashda muallifning alohida pozitsiyasini nazarda tutadi. Referatlash qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

Referatning o`ziga xosligi shundaki, u keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo`lmaydi, ammo matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi. Referatning tuzilishi, asosan, 3 qismdan iborat bo`ladi. Bular–

1) referat rejasi (kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar (referatning shart bo`lmagan qismi – ilovalar) yoritiladi);

2) referat matni (mavzu; mavzu muammosi; referat qilinadigan ishning predmeti; maqsad va vazifalari; mazmuni; aniq natijalar; umumiy xulosalar; ish natijalari qo‘llaniladigan soha);

3) bibliografik bayon (yoki foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati)da (asar/maqola/tezis va h. muallifining familiyasi (to‘liq), ismi, otasining ismi (bosh harflari); asar nomi; nashr qilingan joyi; nashriyot nomi; nashr yili va sahifalar soni. (Agar maqola jurnalda (gazetada) bosilgan bo‘lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.)

Referatning rejasi tanlangan mavzuda ko‘rilishi lozim bo‘lgan masalalar doirasi va referatning asosiy mazmunini belgilaydi. U referatning mavzu materialida umumiy yo‘nalish olishga imkon beradi, uning to‘g‘ri tanlanishi va bayon qilish mantig‘ini ta‘minlaydi. Har bir bandi qat‘iy tanlangan material bilan ta‘minlangan, puxta o‘ylangan reja referatning muvaffaqiyatli yozilishining g‘oyat muhim sharti hisoblanadi.

Referatning asosiy qismi o‘zining lo‘nda va aniq nomiga ega masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo‘linishi zarur. Kirishda tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatlardan dolzarbligi asoslanadi, referatni tayyorlash maqsadi va vazifalari ifodalanadi.

Referat matnidagi ko‘p ishlatiladigan iboralar va so‘z birikmalari quyidagilar:

*“Ishda .... Tizim ko‘rib chiqiladi...”.*

*(Muallifning F.I.OI.) “.....” asarida ... berilgan.*

*“Kirishda ko‘rsatilishicha, ..”.*

*“Muallifning fikricha, ...”.*

*Muallif shunga asoslanadiki, .... Shu bilan birga u ... shunday deb hisoblaydi.*

*“1-bobda... masalasi yoritiladi”.*

*“2-bobda ... tadqiq qilinadi”.*

*“...haqida gapirganda, muallif ... deb ta‘kidlaydi”.*

*“Ishda, shuningdek ... ga e‘tibor qaratiladi”.*

*“Shunday qilib, muallif... degan xulosaga keladi”.*

*“ 3-bobda... tadqiq qilinadi, ... ko‘rib chiqiladi”.*

*“... zarurligi belgilanadi”.*

*“Xulosada muallif: “...” deb yozadi va h.*

Material quruq bayon qilib berilmasligi kerak. Tegishli xulosalarga, shu jumladan, matn bilan chambarchas bog‘lanadigan statistik materialga ega tahlil zarur. Keng hajmdagi statistik ma‘lumotlarni jadvallarda yig‘ish maqsadga muvofiq. Statistik ma‘lumotlar asosida u yoki boshqa lisoniy-nutqiy hodisalar va jarayonlarni ancha yaqqol tasavvur etish hamda rivojlanish dinamikasida aks ettirishga imkon beradigan diagrammalar, grafiklarni ko‘rish ham mumkin.

Referatda keltiriladigan barcha jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar sarlavhalanishi va raqamlanishi kerak. Statistik ma‘lumotlar olingan manbalarning sarlavhalari ko‘rsatilgani holda qayd qilinishi zarur.

Matnda beriladigan barcha raqamli materialning tegishli manbalari ko‘rsatilishi kerak. Shuningdek, boshqa mualliflar asarlaridan olingan matndan ko‘chirmalar, fikrlar, qoidalar, xulosalar so‘zma-so‘z ko‘chirib olinganida ham ,albatta, satr ostida qaydlar berilishi zarur. Munozarali masalalar bo‘yicha har xil nuqtai nazarlarning tahlili, qo‘shiladigan yoki o‘zining pozitsiyasining dalillanishi ham referatning afzalligi hisoblanadi. Referatning xulosasi referent tanlangan mavzuni o‘rganish natijasida qilgan aniq ifodalangan xulosalarni, shuningdek hal etilmay qolgan va keyinchalik ishlab chiqishni talab qiladigan masalalarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qat’iy belgilangan tartibda tuziladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari.
4. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, yo‘riqnomalar.
5. Ilmiy, metodik, publisistik, badiiy adabiyotlar, avtoreferat, dissertatsiya, davriy nashrlarda e‘lon qilingan maqolalar, tezislar.
6. Xorijiy manbalar.
7. Internetdan olingan axborot manbalari.

Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat va ko‘rsatmalar oladi.

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan referat kompyuterda 12 yoki 14 shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog‘ozda, chap tomonidan 2,5 sm, o‘ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2sm

hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari, albatta, raqamlanishi lozim. Ishning raqamlanishi uzluksiz bo‘ladi va 3-sahifadan boshlanadi (birinchi va ikkinchi sahifalar –ishning titul varag‘i va ish rejasi bo‘lib, ular raqamlanmaydi). Sahifa raqami yuqorida o‘rtaga yoki o‘ng tomonga qo‘yiladi.

Referat hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak. Shuningdek, referat savodli tarzda yozilishi va toza ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Umumiy qabul qilingan so‘zlardan boshqa so‘zlarning qisqartirilishiga, shuningdek, xatolar, noaniqliklar, uslubiy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Referat ilmiy rahbarga taqdim etiladigan vaqtga kelib hamma jihatdan maromiga yetkazib ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

### **Kurs ishi (loyihalari)ni bajarish**

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv jarayonining zarur elementi – mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejada ko‘zda tutilgan asosiy fanlardan kurs ishlarini bajarish hisoblanadi va talabalarda ilmiy izlanishlar olib borish ko‘nikmalarini tarbiyalash, tanlangan mavzuni mustaqil ravishda chuqur o‘rganish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, ilmiy, nazariy va amaliy xulosalarni shakllantirish va, pirovardida, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kurs ishi ustida ishlash davomida talaba o‘quv jarayonida olgan nazariy bilimlari va mustaqil tadqiqot natijalarini yozma ravishda bayon qilish usuli, keltirilgan fikrlarning aniqligi, materiallarning joylashish ketma-ketligi, rasmiylashtirishga qo‘yiladigan umumqabul qilingan talablarni hisobga olgan holda bayon qilish tajribasiga ega bo‘lishi juda muhim. Bo‘lajak mutaxassis o‘z fikrlarini aniq va ravon bayon qila olishi, kiritayotgan takliflarini ilmiy va nazariy jihatdan asoslay bilishi, lingvistik terminlarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlata bilishi, kerakli ma‘lumotlarni to‘play olishi va qayta ishlay olishi, ularni atroflicha tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va, ma‘lum ma‘noda, ilmiy izlanish olib borishning kichik bir shaklidir. Ayrim iqtidorli talabalar kurs

ishini bajarish jarayonida birmuncha chuqur va keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib boradilar, ularning mustaqil ravishda bajargan kurs ishlari talabalar ilmiy to'garaklarida, ilmiy konferensiyalarda va tanlovlarda ilmiy ma'ruza qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurs ishlarini bajarish va himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– kafedra tomonidan tavsiya etilgan kurs ishi mavzulari ro'yxatidan mavzuni tanlash;

- tanlangan mavzu bo'yicha dastlab adabiyotlar bilan tanishish;
- kurs ishi rejasini (mustaqil yoki ilmiy rahbar bilan birgalikda) tuzish;
- adabiyotlarni o'rganish va zaruriy ma'lumotlarni to'plash;
- kurs ishini yozish va rasmiylashtirish;
- kurs ishini uslub, imlo, faktik jihatdan tekshirish;
- kurs ishini kafedrada rasmiy himoya qilish.

Talabalarga tavsiya etiladigan kurs ishlari mavzulari fan dasturiga muvofiq tarzda kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra yig'ilishida ko'rib chiqilib, yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlanadi. Talabaga ayrim hollarda kurs ishiga rahbar etib tayinlangan professor-o'qituvchi va kafedra mudiri bilan kelishilgan holda, kurs ishi mavzulari ro'yxatiga kirmagan mavzuni (bunga asos bo'lsa) tanlashi mumkin.

Kurs ishi (loyihalari)ni bajarish tartibi ham referat tayyorlash shakliga mos keladi. Faqat kurs ishida mavzu mohiyati kengroq yoritiladi. Shu bois kurs ishi hajmi 25-30 sahifani tashkil etadi.

Kurs ishini himoya qilish jarayoni talaba uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Unda talabaning kurs ishi mavzusi bo'yicha to'plagan bilimlari sinaladi. Talaba o'z ishini yaxshi bilishi, to'plagan ma'lumotlarining manbalarini aniq ko'rsata olishi, tahlil usullarini tushuntirib berishi, nazariy va amaliy savollarga javob bera olishi lozim. Yozib tugatilgan kurs ishi kafedra tomonidan belgilangan muddat ichida kafedrada ro'yxatga olish yo'li bilan qayd etilgandan so'ng, tanishib chiqish va taqriz berish uchun kurs ishi rahbariga (yoki pedagog-xodimlarning o'quv yuklamasi doirasida boshqa o'qituvchiga) beriladi.

Kurs ishiga yozilgan taqrizda quyidagilar inobatga olinadi:

- a) kurs ishi mavzusining dolzarbligi va o'rganish zarurati;
- b) o'rganilganlik darajasi va kurs ishining o'rganilgan ishlardan farqli tomoni;

d) ishning nazariy saviyasi va ilmiylik darajasi;

e) zaruriy adabiyotlardan to'plangan materiallarni mustaqil izlanishlar asosida mantiqiy izchillikda bayon qilinganligi;

f) muallifning ishda keltirilgan raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, xulosalarni bayon qilish saviyasi;

g) mavzu yuzasidan amaliy tavsiyalarning mavjudligi va asosiligi;

h) kurs ishi himoyasi uchun kafedraning yakuniy xulosasi ("himoyaga ruxsat berildi" yoki "himoyaga ruxsat berilmadi" shaklida).

Kurs ishi himoyasi kafedrada tashkil etiladi. Bu maqsadda fan bo'yicha kurs ishi himoyasi uchun 3 kishidan kam bo'lmagan tarkibda komissiya tuziladi. Kurs ishini talaba maxsus tuzilgan komissiya huzurida himoya qiladi. Komissiya a'zolari bilan talaba o'rtasidagi suhbat asosida talabanning bilim darajasi, mavzu ustida ishlash jarayonida orttirgan ko'nikmalari aniqlanadi. Dastavval talaba o'zi yozgan ishi bo'yicha uning mazmuni, o'rganish predmeti, amaliy ma'lumotlarning manbasi, ularni umumlashtirish usullari, asosiy xulosalarini qisqacha yoritib beradi. So'ngra taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar bo'yicha hamda ish yuzasidan qo'shimcha savol-javoblar asosida talabanning bilimlari tekshiriladi va himoya natijasiga ko'ra kurs ishi baholanadi. Kurs ishini baholash talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash tartibiga ko'ra ballarda amalga oshiriladi. Kurs ishining natijasi fakultet dekanati tomonidan taqdim etilgan qaydnoma varaqasiga tegishli tartibda qayd etiladi va komissiya a'zolari imzolari bilan rasmiylashtiriladi<sup>5</sup>.

Amaldagi 2018-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq talabanning kurs ishi bo'yicha bilimini o'zlashtirish darajasi "5" baholik tizimda baholanadi. Jumladan,

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **"5" ("a'lo")** baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **"4" ("yaxshi")** baho;

---

<sup>5</sup> Mamadiyrov O., Abduxalilova S. Kurs ishlarini bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatma. (Oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun) –T.: Iqtisod-moliya, 2019 -33 b.

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – “3” (“qoniqarli”) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – “2” (“qoniqarsiz”) baho bilan baholanadi.

Kurs ishi bo‘yicha “2” (“qoniqarsiz”) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

### **Fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to‘plash**

Fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to‘plash uchun talaba, ko‘pincha, o‘quv adabiyotlari(darslik, o‘quv qo‘llanma)ga emas, balki matbuot materiallariga, mutaxassislik jurnallariga, ba‘zan ilmiy maqolalar to‘plamlariga, ilmiy-amaliy anjumanlarning materiallariga murojaat etadi. Sohaga oid so‘nggi qarashlar, tavsiyalar bilan tanishadi.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi fanini” o‘qitish jarayoni , asosan , sohada faoliyat yuritishda og‘zaki va yozma savodxonlikni shakllantirish, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgani bois amaliy mashg‘ulotlarda nazariy bilimlar, faktik maqolalar, turli nutq uslublariga oid matnlardan foydalanish ancha samarali kechadi. Mashg‘ulotlar jarayonida talaba mustaqil tayyorgarligi asosida faol ishtirokchiga aylanadi. Masalan, berilgan matn asosida grammatik topshiriqlar bajarishi mumkin.

### **Mavzu: “Halollik – eng ulug‘ ne‘mat”**

Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo‘li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi...

O‘qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loyxandaq qazilgan ekan. Somon katta yo‘lning ko‘pchib yotgan tuprog‘iga qovushib, obdon yumshabdi. O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov xandaqqa tushib loy solib berib turibdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomدا turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchining keksa onasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, bir hafta avval ko‘zi yorigan qizinikiga ketgan ekan.) Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchinning oldiga bordi.

– Nima qilding?! – dedi o‘g‘lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qipqo‘yding?!

Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida, ayniqsa, mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi.

– Nima qilibman, oyi? – dedi ko‘zlarini pirlpiratib.

– Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! – Keyin Azim akaga yuzlandi. – Bu-ku aqmoqlik qilishga qipti, siz qayoqda edingiz? Nega ko‘chadan loy qildilaring?! Ko‘chaning tuprog‘iga tegib bo‘ladimi, nobakor! Ko‘pchilikning haqi-ku, bu! – Kampir bir zum harsillab turdi-da, to‘satdan yig‘lab yubordi. – Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman!

Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o‘tirib oldi...

...Hammamiz qaytadan tomga chiqdik... Suvoq qilishdan ko‘ra loyni ko‘chirish qiyin bo‘larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko‘chadagi loyxandaqni to‘ldirib qo‘ydik...

...Oradan yillar o‘tib, kampir ko‘z yumganida tumonat odam uni o‘sha ko‘chadan so‘nggi manziliga ko‘tarib bordi...

Ko‘cha tuprog‘i iliq edi... Mayin edi...

(O‘tkir Hoshimovdan)

**1-topshiriq:** *Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.*

**2-topshiriq:** *Matn tarkibidagi har bir so‘zni (lug‘at yordamida) boshqa ma‘nodoshi bilan almashtirib, matnni qayta tuzishga harakat qiling.*

**3-topshiriq:** *Matn mazmunini o‘z so‘zingiz asosida 4-5 ta gapda yozma ifodalang.*

**4-topshiriq:** *“Hikmatnoma” kitobidan halollik haqidagi maqollarni toping va ulardan matn mazmuniga aynan mos keladiganini tanlab, daftaringizga ko‘chiring.*

*Bizda, avvalo, mashg‘ulotlarda keng foydalanish uchun zarur bo‘lgan axborot manbalari (masalan, lug‘atlar, qomuslar, ma‘lumotnomalar) yetarli emas. Shuning uchun ham mashg‘ulotlarda bir necha xil axborot manbasidan foydalanish ko‘nikmasi mavjud bo‘lmaydi.*

*O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi faniniga ko‘ra, talaba(o‘quvchi) mashg‘ulotlar mobaynida quyidagi parametrlarni o‘zlashtirishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan:*

1. *Og‘zaki nutq malakalarini o‘zlashtirish va amalda namoyon etish. Bu parametr orqali talabaning biror matn asosida fikrlarni to‘g‘ri anglash hamda qisqa, ravon so‘zlay olish ko‘nikmasi aniqlanadi.*

2. *O‘zgalor fikrini va matn mazmunini anglash malakasi talabaning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalor fikrini hamda yozma matn mazmunini angelay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalor fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.*

3. *Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta‘limining bosh maqsadi shu parametrdan to‘la yuzaga chiqadi. Talabaning ona tili ta‘limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta‘lim sifatining*



*natijasini baholashda professor-o'qituvchi tomonidan talaba egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:*

*a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganini aniqlash;*

*b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);*

*d) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;*

*e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;*

*f) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.*

Fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to'plash topshirig'i talabani o'z sohasiga oid muammo, yechim, tavsiya va qarashlar borasida zamon bilan hamqadam bo'lishni ta'minlaydi.

### **Test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash**

Kuzatishlarimiz ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning muayyan mavzu yuzasidan test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash shaklini talabalar qiziqish bilan bajarishadi. Masalan, O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanidan "Ilmiy uslub. Sohaviy terminlarning leksik xususiyatlari" mavzusi.

#### **Quyidagi savol va topshiriqlarni bajaring:**

**1.Terminlarga xos xususiyatlarni sanang.**

**2.Atamalar qaysi mezonlar bo'yicha tasnif qilinadi?**

**3.Sohaviy atamalarga misollar keltiring.**

**4.Ilmiy-ommabop matnga namuna yozib tahlil qiling.**

**Namuna:** Ma'lum sohaga oid maxsus tushunchalarni mantiqan aniq ifodalash uchun qo'llanadigan so'z yoki so'z birkmalari yig'indisi terminologik (lot. terminus – "chegara", logos - "fan" degani)<sup>6</sup> leksika deb ataladi. Terminologik leksikaning birligi termin (yoki atama) deb yuritiladi. Har qanday termin ma'lum bir terminlar tizimidagina termin hisoblanadi. Shu bilan u umumxalq leksikasiga mansub bo'lgan so'zdan farq qiladi. Terminlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1) biror sohaga oid maxsus tushunchani ifodalaydi. Masalan, leksikologiya termini tilshunoslik sohasiga tegishli bo'lib, tilning lug'at boyligini o'rganadigan bo'lim tushunchasini ifodalaydi.

2) bitta terminologik tizimda har doim bir ma'noli bo'ladi. Masalan, ot so'zi atama sifatida faqat so'z turkumi tushunchasini bildiradi (bu so'z "ism", "hayvon", "otmoq", "ichmoq" ma'nolaridagi so'zlar bilan omonim hisoblanadi).

3) ko'pincha tillararo xususiatga ega bo'ladi. Masalan, lotin tilidan olingan respublika termini dunyodagi ko'pgina tillarda bir xil tushunchani ifodalaydi.

<sup>6</sup> A.A.Реформатский. Введение в языковедение. М., 1997, стр. 110.

4) bir soʻz bittadan ortiq sohaga tegishli termin boʻlishi mumkin. Masalan, valentlik termini kimyo hamda tilshunoslik fanlarida ishlatiladi.

5) asosan ot turkumiga tegishli boʻladi, boshqa turkumga tegishli boʻlsa, otga koʻchgan boʻladi: sintaksis (ot), ishlab chiqarish (harakat nomi otga koʻchgan).

### **Atamalarni quyidagi mezonlar boʻyicha tasnif qilish mumkin:**

1) qaysi sohaga oidligiga koʻra:

a) kasb-hunar atamalari maʼlum kasb yoki hunar egalari tomonidan ishlatiladigan atamalardir. Dunyoda qancha kasb yoki hunar boʻlsa, shularning har biriga xos boʻlgan atamalar mavjuddir. Ayrim kasblarga oid atamalarga misollar:

- oʻqituvchilik: reyting, yillik baho, sinf jurnali, pedkengash, semestr, choraklik va h.

- duradgorlik: randa, iskana, tesha, bolgʻa va h.

b) ilmiy atamalar maʼlum fan-texnika sohasiga mansub tushunchalarni ifodalaydigan atamalardir. Bunday atamalar tabiiy fanlar, texnika fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, matematik fanlarning barchasida mavjuddir. Masalan:

- kimyo: oksid, sulfat, reaksiya, valentlik, kislorod, vodorod va h.

- matematika: sinus, kosinus, ayniyat, romb, parallelogram, teorema, aksioma va h.

- mantiq: predikat, subyekt, obyekt, hukm, tushuncha va h.

- kibernetika (yoki komputer texnologiyasi): EHM, axborot, fayl, disk, internet va h.

2) kelib chiqishiga koʻra:

a) umumxalq leksikasidan olingan terminlar. Bundatilning oʻzida mavjud boʻlgan soʻzlar termin sifatida maydonga chiqadi. Masalan, tilshunoslikka oid ot, sifat, son, feʼl, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, gap, soʻz kabi, meʼmorchilikka oid pardozi, davra, namoyon, oʻymakor, taqsim kabi<sup>7</sup>, temirchilikka oid pesh, tana, yelka, charxdor, dam kabi<sup>8</sup> atamalar bunga misol boʻla oladi.

b) chet tillardan olingan terminlar. Bundatilimizga hozirgi paytda aloqa vositasi hisoblangan chet tillardan olingan atamalar nazarda tutiladi. Masalan, yadro fizikasiga oid activator, barion, diproton, kvant;<sup>9</sup> botanikaga oid azaliya, valeriana, gortenziya, magnoliya;<sup>10</sup> logopediya faniga oid anamnez, giperkinez, distoniya, patogenezi kabi<sup>11</sup>, zargarlik kasbiga oid parma, bargak, peshxalta, dahanda kabi<sup>12</sup> atamalar shunga misol boʻla oladi.

### **Matnni kengaytirish quyidagi yoʻl va vositalar bilan amalga oshiriladi:**

<sup>7</sup>T.Турсунова. Меъморчилик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. -Т., “Фан” нашриёти, 1999, 42, 89-бетлар

<sup>8</sup>С.Иброҳимов. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Т., 1999, 107,108,109-бетлар.

<sup>9</sup>А.А.Абдуразақов, Э.Н.Назиров. Ядро физикасидан русча-ўзбекча терминлар луғати. Т., 1998, 11, 20,52, 86-бетлар.

<sup>10</sup>А.И.Қосимов, М.М.Набиев. Ботаникадан қисқача изоҳли луғат. Т., “Ўқитувчи”, 1990, 7, 20, 28, 50-бетлар.

<sup>11</sup>Л.Мўминова, М.Қахрамонова. Логопедия терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1988, 8, 16, 21, 36-бетлар.

<sup>12</sup>С.Иброҳимов. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Т., 1999, 134-135-бетлар.

– matnning bosh fikri, gʻoyasini shakllantiruvchi tayanch soʻz yoki gap, ifodani aniqlash va shunga bogʻliqlaholda oʻz mustaqil, ijodiy fikrini ifodalovchi gap, ifoda qoʻshish;

— matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash;

– gapni uyushiq boʻlaklar, kiritmalar, ajratilgan boʻlaklar hisobiga kengaytirish;

— soʻz va birikmalarni maʼnodoshlari — tasviriy ifodalar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalaribilan almashtirish;

– sodda gapni qoʻshma gapga, qoʻshma gapni alohidasodda gaplarga ajratish;

– asosiy fikrni ifodalovchi gapga qoʻshimcha fikr, izoh bildiruvchi sintaktik parallel gaplarni mantiqiyizchillikda bogʻlab kiritish;

— matnning kirish, xulosa qismlarini oʻz qarashlari, mulohazalari, ilovalari bilan toʻldirish.

**Topshiriq.** Matnни oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning maʼnosini izohlang. Oʻzbekiston **yer islohoti** tizimida **yer mulkchiligiga** amal qilish iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi — yerda turli xil xoʻjalik yuritish shakllarining teng huquqli rivojlanishi, koʻp **ukladli iqtisodiyotni** shakllantirish, yerdan samarali va **oqilona** foydalanish hamda uni muhofaza etish uchun shart-sharoitlar yaratish manfaatlarini yoʻlida **ynerni qayta taqsimlashdan** iborat boʻlmogʻi kerak. Bunday maqsadga erishish, albatta, oson emas va u yer islohotining prinsipial **masalalarini** aniqlab olishni taqozo etadi.

Birinchidan, **yer resurslariga** egalik qilish, **tasarruf etish** va foydalanishning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash va asoslash lozim. Ayniqsa, yerdan foydalanuvchilarning manfaatlariva masʼuliyatlarini uygʻunlashtirish, ularni amalga oshirishningsamarali **mexanizmlarini** topish va amaliyotga tatbiq qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi vaqtda tub yer islohotini oʻtkazishuchun davlatning yerga boʻlgan mutlaq **mulkiy huquqiga** minlangan holda yer resurslaridan foydalanish, egalik qilishva tasarruf etish boʻyicha iqtisodiy vazifalarni kuchaytirishnihiyotda zarur boʻlmoqda.«Oʻzbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnalidan.

**Mashq.** Gaplarni koʻchiring. Kasb-hunarga oid soʻzlarning vazifasini aniqlab, qavs ichida koʻrsating.

1. Endigina tandirdan uzib olingan patir hidi insonga orom beradigan xushboʻy hiddir. 2. Manovi yakka ot-aravadaularga suv ham, yonilgʻi ham, moy ham, yana boshqa balo-battarlarni yetkazib berishim kerak (*Ch. Aytmatov*).3. Binoning devorlariga ganj bilan ishlov berilgan, eshikva derazalari oʻymakorlik gullari bilan bezatilgan. 4. Tekistaxtaga quruq boʻr bilan yozsangiz, yozuvingiz aniq koʻrinadi. 5. Oʻrikning turli navlari, qanday payvand qilish, naycha payvand, kurtak payvandlar toʻgʻrisidasoʻrab-surishtirib, ancha narsalarni bilib oldim (*S. Ahmad*).6. Yozganlaringizni disketga koʻchirgandan soʻng,matnни kompyuter xotirasidan oʻchirishingiz mumkin.7. Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach,na mix, na lok (*Gʻ. Gʻulom*).

**Nutqda ishlatilish doirasi maʼlum kasb-hunarga koʻra** chegaralangan soʻzlar **kasb-hunarga oid soʻzlar** hisoblanadi.

Bunday soʻzlar qaysi hududda yashashidan qatʼi nazar, bir xil kasb egalariga tushunarli boʻladi. Masalan, **daska** (kulollar xom idishlar ichini dasmollashda suv quyib ishlatadigan sopol idish), **joʻsha** (togʻdanolinadigan qizil kesak), **volash** (loyni ochib-yorib tozalash)kabi soʻzlar kulollargagina tushunarlidir. Kasb-hunarga xos soʻzlarning asosiy qismini shushohaga oid atama (termin)lar tashkil etadi. **Atamalar**fan, texnika, madaniyat kabi sohalaridagi aniq chegaralangantushunchalarni ifodalaydigan bir maʼnoli soʻzva soʻz birikmalaridir. Atamalar qoʻshimcha maʼnojilolariga ega emas. Atamalarning koʻpchiligi boshqatillardan oʻzlashgan soʻzlardan iborat. *Masalan: advokat, argon, dialog, debitor, grant, modul, metr, test, tormoz, marketing*kabilar. **Topshiriq.** Biror fan boʻyicha darslingizdan muayyan parchanioʻqing. Bevosita shu fanga oid atamalarni ajratib, maʼnosini lugʻat asosida izohlang. **Mashq.** Matnmi oʻqing. Sohaga oid atamalar qoʻllangangaplarni koʻchirib oling, qavs ichida atamaning maʼnosini yozing.

Bir xil maʼnoli ifodalarni nutqda ortiqcha kiritish mantiqiylikningbuzilishiga sabab boʻladi. Bir xil maʼnoli birdanortiq ifodalar pleonazm deb yuritiladi: *men, oʻzim; shu bugun,bugundan boshlab* kabi. Mantiqiy aloqalar va munosabatlarni ifodalashning muhim vositalaridan biri kirish soʻz,kirish birikmalar, yordamchi soʻzlar, bogʻlovchilar, yuklamalar hisoblanadi. Ulardan toʻgʻri foydalanish yaxshi nutq yaratishning garovi sanaladi. Gaplar orasida mantiqiylikning buzilishiga sabab sifatida quyidagilarni koʻrsatsa boʻladi:

1. Gaplarni bir-biriga bogʻlashda yuz beradigan xatolar.
2. Bir fikrdan boshqasiga oʻtishda yuz beradigan xatolar.
3. Matnmi xatboshilarga ajratishda xatolarga yoʻl qoʻyish.
4. Matnmi mantiqiy shakllantirish, sintaktik qurilmalarni tanlashda yuz beradigan xatolar.

Har bir gapda nisbatan tugallangan qandaydir fikr ifodalanganboʻladi. Avvalgi gaplarda ifodalangan fikrni keyingi gapda ifodalangan fikr, odatda, yo rivojlantiradi, yoki ulardankelib chiqadigan fikrlarni xulosalaydi. Shunday ekan, keyingi gapni oldingi gap bilan toʻgʻri bogʻlash muhimdir.Gaplar bir-biri bilan xilma-xil sintaktik vositalar orqalibogʻlanadi.

**Ixtisoslikka oid soʻzlarni** nutqda toʻgʻri tanlash va qoʻllash ham nutq madaniyatining, ham kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi.

**Soʻz tanlashda** quyidagilarga eʼtibor beriladi:

- soʻzning lugʻaviy maʼnosini bilgan holda tanlash;
- tanlangan soʻzni aniq talaffuz eta olishni nazardatutish;
- soʻzning suhbatdoshlarga tushunarli boʻlishinihisobga olish;
- soʻzning maʼno xususiyatlariga asoslanib, uni nutqmaqсадiga muvofiq tarzda tanlash;
- soʻzni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;
- baynalmilal atamani adabiy tilning leksik meʼyorigamuvofiq holda tanlash;
- soʻz, atamani matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

Ixtisoslikka oid **matn tuzishda** quyidagilarga eʼtiborni qaratish lozim:

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid soʻz va shartli belgilarni toʻgʻri tanlayolish va oʻrinli joylashtirish;
- soʻz va atamalarni imlo meʼyorlariga rioya qilgan holda yozish;
- kasbdoshlarga unchalik tanish boʻlmagan yoki faol qoʻllanmaydigan atama, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;
- ixtisoslikka oid atamalarni boshqa tillardan oʻzlashtirishva soʻz yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;
- kasb-hunar soʻzlari va atamalarining oʻrinsiz takrorlanishiga yoʻl qoʻymaslik, ularning taʼsirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanish va boshqalar.

**Topshiriq.** Ixtisoslikka oid lugʻatdan 10 ta soʻz, atamani daftaringizga koʻchirib oling. Tanlagan soʻzlaringiz qarshisiga ularning maʼnodoshlari yoki unga uyadosh soʻzlarni topib yozing. Soʻngra 4 tasidan foydalanib, uslubiy jihatdan farqlanuvchi gaplar tuzing.

*Namuna:* **roʻyxatlash — roʻyxatdan oʻtkazish.**

1. Nazoratchi murojaat etayotgan kishilarni roʻyxatlashga kirishdi.
2. Shaxsiy avtomobilimni roʻyxatdan oʻtkazishingizni soʻrayman.

### **Ilmiy maqola, tezislar va maʼruza tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzu boʻyicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil boʻlgan topshiriqlar, munozaraga asos boʻladigan savollar tuzish topshiriladi. Ilmiy maqola, tezislar va maʼruza tayyorlash ancha murakkab jarayon boʻlib, bu eng aʼlochi, iqtidorli yoki ilmiy mushohadaga uquvi bor talabalar bilan amalga oshiriladi. Masalan, talaba maʼruza tayyorlashi uchun kamida 50-60ta oliy taʼlim tizimi uchun puxta ishlangan maʼruza matnini diqqat bilan oʻqib, ham uqib chiqqan boʻlishi zarur. Zero, maʼruza tayyorlash—ancha murakkab va koʻp mehnat talab qiladigan ish. S.I.Arxangelskiyning fikricha, maʼruza oʻqituvchisi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuygʻusi, eʼtiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda boʻlishining eng samarali, jonli shaklidir.

Maʼruza oliy oʻquv yurtlari auditoriyalarida eng koʻp qoʻllanadigan dars shakli hisoblanadi. Maʼruza fanga tegishli darslik, oʻquv qoʻllanmalar va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat boʻlib qolmasdan, balki oʻqituvchining aniq bir soha boʻyicha shaxsiy, ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham oʻzida jamlashi lozim. Yetuk maʼruza oʻquvchi talabaga maʼruzaga vaqtinchalik deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borishi, maʼruzani qayta

ishlab, to'ldirib va mukammallashtirishi lozim. Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda tayyorlangan ma'ruzagina mustaqil ta'limning oliy ko'rinishi bo'la oladi.

Oliy ta'lim mashg'ulotlari uchun ma'ruza tayyorlash qanchalk qiya bo'lmasin, talabaga bunday mustaqil ta'lim topshirig'ini berishdan chekinmaslik kerak. Zero, narvonning yuqori pillapoyasiga ham pastdan chiqilishini unutmazlik zarur.

### **“O'zbek tili-o'zbek madaniyatini ochib beruvchi vosita**

1989-yil 21-oktyabr kuni Davlat tili to'g'risidagi qonun qabul qilindi, unga muvofiq o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu mustaqillikka erishish yo'lida hal qiluvchi qadam bo'ldi. Dunyoda har bir xalqning o'z tili uning bebaho boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Dostonlar, she'r-u qo'shiqlar, hikmatli so'zlar shu yurtning o'z tilida yoziladi. Davlat tili to'g'risida qonuning qabul qilinishi qonun hujjatlari, farmon va farmoyishlarning o'z tilimizda olib borilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

2017-yil 19-sentyabrda BMT bosh assambleyasining 72-sessiyasida prezidentimizning o'zbek tilida nutq so'zlashlarining o'zi ham ona tilimizga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishidir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida “Sohada o'zbek tilining qo'llanishi” nomli fan joriy qilingan bo'lib, mazkur fan har bir talaba sohasi doirasida o'z ona tilini yaxshi bilishi, chiroyli gapira olishi, qolaversa, tilning yozma me'yorlaridan ham boxabar bo'lishi kabi maqsadlarni o'zida mujassam qilgan. Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil qilish hamda boshqarish yo'nalishi talabalariga bu sohada o'zbek tilining ahamiyati, bu fanning talabalarning keyingi faoliyatlaridagi ahamiyati haqida seminar mashg'ulotlari amalga oshirilmogda. Mashg'ulotlar davomida biz talabalar shunga amin bo'lyapmizki, o'zbek tilning rivojlanishida bizning sohamizning o'rni beqiyos hisoblanadi. Biz kelajakda faoliyat boshlaydigan madaniyat markazlarida barcha insonlar ongida o'z ona tiliga bo'lgan hurmatni va u haqidagi qarashlarni singdira oladigan kuchli notiqlar bo'lishimiz kerakligi haqida amaliy ko'nikmalar olib borilmogda.

Inson qachon boshqalar e'tiborida go'zal shaxs sifatida shakllanadi? Qachonki, u o'z ona tilida ravon va chiroyli gapira olsa. Boshqaruv sohasida faoliyat olib boruvchi shaxslar eng avvalo o'z ona tillarini hurmat qilishlari, unda chiroyli nutq so'zlay olish qobiliyatlariga ega bo'lishlari kerak. Har qanday zamonda ham o'z tilida mukammal gapira olgan shaxslar e'zozlangan.

O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning iste'mol doirasini kengaytirish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Har bir yosh va o'quvchi o'z ona tilidagi so'z boyligini oshirishi hamda til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga harakat qilishlari kerak.

Bugungi kunda ona tilimizga bo'lgan e'tiborning yuksakligidan o'tkazilayotgan davlat tadbirlarida, ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ishtirok etadigan ishtirokchilar o'zbek tilida nutq so'zlab, tilimizning imkoniyatlarini o'zida mujassam qilgan nutqlar tayyorlab, ona tilimiz imkoniyatlarini omma e'tiboriga ko'z-ko'z qilishmogda. Inson

soʻzlagan nutqi qanchalar goʻzal boʻlsa, boshqa insonlarda u soʻzlayotgan tilga ehtirom shunchalar kuchli boʻladi. Shuning uchun ham nutq soʻzlanganda tilimizning imkoniyat doiralari eng goʻzal namunalari oʻrinli foydalana olishimiz zarur.

Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri bu til ekan, har bir inson oʻz tilini bilishi uni ulugʻlashi va shu bilan bir qatorda boshqa tillarni ham hurmat bilan ehtirom koʻrsatishi kerak. Hozirgi paytda mamlakatimizda chet tillarini oʻrganish, unda muloqot qilish keng joriy qilinmoqda. Maktab, litsey va oliy oʻquv yurtlarida ham chet tili fanlari qoʻyilib, yoshlar ongida ikki tilda fikrlash qobiliyatlarini oshirish qolaversa, ikki til imkoniyatlaridan foydalangan holda dunyo qarashni va soʻz qoʻllash qobiliyatining oshishiga asos boʻlib xizmat qiladi. Biz yoshlar oʻz ona tilimizning dovruqʻini dunyoga tanitadigan yoshlar boʻlishga harakat qilyapmiz. Bu yurtning buguni va ertasi biz yoshlarning qoʻlidadir. Bugun biz yoshlar oʻz tilimizda ravon gapira olsak, bizdan keyingi avlod ham oʻz ona tiliga ehtirom bilan ulgʻayadi. Bugunni tarbiya qilmasdan ertangi porloq kelajak haqida oʻy surish notoʻgʻridir. Bugunni tarbiya qilmagan jamiyat kelajakni qoʻldan boy bergan hisoblanadi. Bugun mustahkam bilim va salohiyatga ega shaxslar koʻp boʻlsagina, ertangi kunning rivojlanishi uchun zamin yaratiladi. Shundagina oʻylangan barcha maqsadlarga erishish mumkin. Bu maqsadlarga erishishda ham oʻzbek tilimizning oʻmi beqiyosdir.

Guljahon Nurulloeva,  
BuxDU Sanʼatshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi.”<sup>13</sup>

## **Muayyan mavzular yuzasidan nostandart topshiriqlar tayyorlash**

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida professor-oʻqituvchilar tomonidan oʻquv kursi mazmuni boʻyicha test topshiriqlari bankini tuzib, mazkur testlardan My test dasturi vositasida adaptiv test topshiriqlarini yaratib, talabalarning oʻz-oʻzini nazorat qilish jarayoni tashkil etilmoqda va bu jarayon taʼlim samaradorligining ortishiga bevosita va bilvosita taʼsir koʻrsatayotganligi maʼlum boʻldi.

Shuni qayd etish kerakki, talabalarning oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va oʻz-oʻzini nazorat qilish jarayoni oliy taʼlim muassasalarida tashkil etiladigan taʼlim-tarbiya jarayonining ajralmas uzviy qismi boʻlib, mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etilishi taʼlim samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

<sup>13</sup> <https://telegra.ph/%D0%8Ezbek-tili-%D1%9Ezbek-madaniyatini-ochib-beruvchi-vosita-10-18>

Oliy ta'lim bo'g'ini–bakalavriat va magistratura ta'limi maqsadida jahon standartlariga mos, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli mutaxassisni jamiyatga yetishtirib berish mo'ljali turadi. Zero, har qanday mamlakatning asosiy kuchini ziyolilar tashkil etadi, jamiyat taraqqiyoti ziyolilarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga qay darajada egaligi bilan belgilanadi.

Tilshunoslik bo'yicha tavsiya etayotgan nostandart topshiriqlarimizdan (talabalar tomonidan bajarilishi ko'zda tutilgan ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri) ijodiy faoliyat tajribalari bosqichini aniqlashda qo'llaniladigan nazorat turi sifatida foydalanish mumkin. Bu talabalar tomonidan aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasashni, ya'ni ijodiy fikr yuritishni talab etadi.

Xulosa shuki, butun mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida tub islohotlar<sup>7</sup> amalga oshirilayotgan bir davrda an'anaviy shakl va usullardan voz kechishimiz, samara bera oladigan yangiliklar, masalan, nostandart topshiriqlardan unumli foydalanib, ta'lim samaradorligining oshishini ta'minlamog'imiz zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Nostandart topshiriqlarni tuzish, bajarish jarayonlaridan talabalarimiz xabardor bo'lishlari shart. Quyida nostandart topshiriq namunalarini havola etamiz:

**Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini qo'yib, maqollarni ayting.**

**So'zlar:** nojo'ya, yaltiroq, kerakli, qaltiroq.

1...yukning og'irligi yo`q.

2...o`yin sindirar bo`yin.

3.Usti...,ichi... .

**Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini qo'yib, maqollarni ayting.**

**So'zlar:** o`ziga, yaxshi , dil, so`ziga.

1... bilsang ishingni,

Yaxshilar silar boshingni.

2.Til-... kaliti.

3...boqma, ...boq.

---

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ 2909-сон Қарори.



**Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.**

**So`zlar:** to`zar, er, o`zar, sher.

1.O`qigan..., o`qimagan...

2.O`zingni ... bilsang, o`zgani ... bil.

**Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.**

**So`zlar:** o`zini, sevmog, o`zgani.

1... bilmagan ...bilmas.

2.Vatanni .... Iymondandir.

**Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.**

**So`zlar:** yurt, odam, yurtningning, chamanini ,tinchlik.

1.O`z ... qadri o`zga ....da bilinadi.

2 Bulbul.... sevar, ... -Vatanini.

3.... urushni yengar.

**Quyidagi jadval asosida so `zlarni tarkibga ajrating.**

So`z tarkibi			
So`zlar	O`zak	So`z yasovchi qo`shimcha	Shakl yasovchi qo`shimcha
Turk avji			
Tani maqom			
Tanbur chizig`i			

So`z tarkibi			
So`zlar	O`zak	So`z yasovchi qo`shimcha	Shakl yasovchi qo`shimcha
mustaqillik			
dorixonada			
dovyuraklik			

So`z tarkibi
--------------

Soʻzlar	Oʻzak	Soʻz yasovchi qoʻshimcha	Shakl yasovchi qoʻshimcha
Panjgoh			
Diapazon			
Garmoniya			

Soʻz tarkibi			
Soʻzlar	Oʻzak	Soʻz yasovchi qoʻshimcha	Shakl yasovchi qoʻshimcha
Sarbozcha			
Sarparda			
Soqiynoma			

**Quyida berilgan leksemalarni belgi ifodalovchi va nom ifodalovchilarga ajrating va mos raqamlarni jadvalning *javob raqamlar* qismiga yozing<sup>8</sup>.**

1) [havorang]; 2) [gulkaram]; 3) [havasli]; 4) [suhbatdosh]; 5) [soyaparvar]; 6) [gʻalcha]; 7) [tillakokil]; 8) [shāddod]; 9) [shirakayf]; 10) [ozgina]; 11) [koʻproq]

leksema turi	javob raqamlar
belgi ifodalovchi leksemalar	
nom ifodalovchi leksemalar	


**Muayyan mavzular magʻzini slaydlarda aks ettirish**

Odatda, bunda koʻrgazmali vositalar tayyorlash nazarda tutiladi. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq oʻzlashtirish uchun yordam beradigan koʻrgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, harakatlar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu oʻqituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga maʼlum koʻrsatmalar, yoʻl-yoʻriqlar beriladi. Koʻrgazmali vositalarning miqdori,

<sup>8</sup> Yoʻldosheva D., Yusupova D. Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar .Metodik qoʻllanma.–Toshkent: Paradigma, 2018.–48 b.

shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir nechta talabaga topshirish ham mumkin.





### **Fan atamalariga doir kichik izohli lug‘at tuzish**

Mazkur topshiriq ham talabani fan asoslarini, uning atamalarini, umuman, terminologiyani mustaqil o‘rganishi uchun zamin hozirlaydi. Buning uchun talaba, avvalo, izohli lug‘atlarning tuzilish tartibini, ifoda bayonidagi lo‘ndalik, alifbo tartibiga rioya qilish kabilarni puxta bilishi zarur.

Dinamik belgilar (nyanslar)— musiqa asari ijrosi jarayonida tovush kuchining o‘zgartirilishi.

Dirijyor — xor yoki orkestr rahbari. O‘zining badiiy maqsadini: sur‘atni, ijro salohiyatini dirijyor qo‘l ishoralari orqali ko‘rsatadi.

Dissonans intervallar — keskin eshitiladigan, tovushlari bir biriga quyilib ketmaydigan intervallar.

Dominanta — ladning beshinchi bosqichi.

Dominanta uchtovushligi — ladning 5 bosqichidan tuzilgan uchtovushlik.

Dominantseptakkord — ladning beshinchi bosqichidan tuzilgan septakkord, major uchtovushligi va kichik septimadan iborat.

Doriy ladi — xalq musiqasida uchraydigan oʻziga xos lad. Tabiiy minordan VI bosqich koʻtarilganligi bilan (doriy sekstasi deb ham ataladi) farq qiladi.

Dubl-bemol (bb—dvoynoy)

### **Muayyan matn tarkibi yuzasidan grammatik tahlilni amalga oshirish**

Grammatik tahlil talabaning til sathlari boʻyicha oʻrganganlarini mustahkamlaydi, oʻzlashtirgan bilimlarini chuqurlashtiradi. Grammatik tahlil tarkibiga fonetik, leksik, orfografik, morfemik, morfologik, sintaktik, stilistik, punktuatsion tahlil turlari kiradi. Grammatik tahlildan, odatda, shu boʻlimlar oʻtib boʻlingach foydalaniladi.

**1. Fonetik tahlil**da soʻzning fonetik jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili—bu millatning ruhidir* gapining fonetik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) gap tarkibidagi unilarni ajratish: *Ona tili—bu millatning ruhidir*;

b) gap tarkibidagi undoshlarni ajratish: *Ona tili—bu millatning ruhidir*;

d) gap tarkibini boʻgʻinlarga ajratish: *O-na ti-li—bu mil-lat-ning ru-hidir* (gap tarkibida 7ta ochiq, 4ta yopiq boʻgʻin mavjud);

e) gap tarkibidagi soʻzlarning urgʻusini aniqlash: *Ona□ tili □—bu□ millatni□ng ruhi□dir*;

f) gap tarkibidagi ajratilgan soʻz tahlili: *millatning*

*m— undosh, hosil boʻlish oʻrniga koʻra lab-lab, hosil boʻlish usuliga koʻra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga koʻra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga koʻra sonor*;

*i— unli, tilning yotiq holatiga koʻra til oldi, tilning tik holatiga koʻra tor, lablar ishtirokiga koʻra lablanmagan*;

*l— undosh, hosil boʻlish oʻrniga koʻra til oldi, hosil boʻlish usuliga koʻra yon tovush, ovoz va shovqin ishtirokiga koʻra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga koʻra sonor*;

*a— unli, tilning yotiq holatiga koʻra til oldi, tilning tik holatiga koʻra keng, lablar ishtirokiga koʻra lablanmagan*;

*t— undosh, hosil boʻlish oʻrniga koʻra til oldi, hosil boʻlish usuliga koʻra portlovchi, ovoz va shovqin ishtirokiga koʻra jarangsiz, ovoz va shovqin miqdoriga koʻra shovqinli*;

**n**– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor;

**ng**– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra sayoz til orqa, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor.

**2. Leksik tahlil**da so‘zning leksik jihatiga e‘tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapining leksik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) leksik ma‘no turiga ko‘ra: *ona tili*–bir ma‘noli so‘z, *bu*– bir ma‘noli so‘z, *millat*– bir ma‘noli so‘z, *ruh*– ko‘p ma‘noli so‘z;

b) ma‘no ko‘chishiga ko‘ra: *ona tili*–ko‘chmagan, *bu*– ko‘chmagan, *millat*– ko‘chmagan, *ruh*– metafora usulida ko‘chgan;

d) ishlatilish doirasiga ko‘ra: *barchasi umumiste‘ moldagi so‘zlar*;

e)shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra: **ona tili**[o‘zbekcha]– ma‘nodoshi–; shartli antonimi–chet tili; uyadoshi–o‘zbek tili, davlat tili; omonimi–; **bu**[o‘zbekcha]–ma‘nodoshi–u, shu, ana shu; shartli antonimi–anovi; uyadoshi–barcha ko‘rsatish olmoshlari; omonimi–; **millat**[arabcha]–ma‘nodoshi–xalq; shartli antonimi–olamon, to‘da, guruh; uyadoshi–elat, xalq, davlat, mamlakat; omonimi–; **ruh**[arabcha]– ma‘nodoshi–jon, shuur, siyrat; shartli antonimi–o‘lik; uyadoshi– jon, shuur, siyrat, kayfiyat, asos; omonimi–I– jon, shuur, siyrat; II–rangli metall;

f) tuzilishiga ko‘ra: *ona tili* (qo‘shma so‘z); *bu* (sodda tub so‘z); *millatning* (sodda tub so‘z); *ruhidir* (sodda tub so‘z).

**3. Orfografik tahlil**da so‘zning imloviy jihatiga e‘tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapi tarkibidagi barcha so‘zlar morfologik tamoyil asosida yozilgan.

**4. Morfemik tahlil**da so‘zning morfemik jihatiga e‘tibor qaratiladi. Chunonchi, “*Maqom ansambli-maqom yo‘llarini ijro etuvchi sozanda va xonandalar to‘dasi*” gapining morfemik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

so‘zlar	asos	qo‘shimchalar		
		so‘z	shakl yasovchi qo‘shimchalar	
			so‘z	sintaktik shakl yasovchi

		yasovchi	shakli yasovchi	tuslovchi	turlovchi	
					egallik	kelish ik

**5. Morfologik tahlil**da soʻzning turkumiy jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, “*Nasrning asosiy boʻlaklari saraxbor, talqin, nasrlar boʻlib, ularning turlicha variantlari bor*” gapining turkumiy tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

mustaqil soʻzlar							yordamchi soʻzlar			soʻz- egalar
feʼl	ot	sifat	son	ravish	taqlid	olmosh	koʻmakchi	bogʻlovchi	yuklam a	

**6. Sintaktik tahlil**da gapning tuzilish jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, “*Peshrav koʻproq Xorazm maqomlarining birinchi qismi (chertim yoʻli)dan soʻng keladi*” gapining sintaktik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) gap tuzilishiga koʻra: sodda yoyiq gap;
- b) ifoda maqsadiga koʻra: darak gap;
- d) grammatik asosiga koʻra: ikki bosh boʻlakli gap, toʻliq gap;
- e) gapda soʻzlar bogʻlanishiga koʻra: bitta moslashuvli tobe bogʻlanish mavjud; teng bogʻlanish–;
- f) gap boʻlaklarining ifodalanishiga koʻra: ot kesim, turlangan mavhum ot bilan ifodalangan;–ega, turlangan qoʻshma ot bilan ifodalangan; sifatlovchi aniqlovchi, koʻrsatish olmoshi bilan ifodalangan; qaratqich aniqlovchi, turlangan jamlovchi ot bilan ifodalangan.





**Talaba mustaqil ishini samarali tashkil etishda:**

- \* tizimli yondoshish;
- \* barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- \* bajarilishi ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatish;
- \* tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirib borish;

\*oliy maktabda mustaqil ta'lim olishga bo'lajak mutaxassislarning o'quv ijodiy tayyorgarlik sifat va samaradorligini oshirish omili sifatida qaralib, uni uzviy va uzluksiz tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish muhim.

Talaba mustaqil ishi vaziyatga qarab **og'zaki, yozma, qo'lyozma, elektron** shakllarda tayyorlanishi mumkin.

**1. Berilgan tilshunos olimlarning rasmlari va ismi shariflarini to'g'ri juftlang.**

<b>1-B.De Kurtene</b>	 -A
<b>2- F.Sosyur</b>	 -B
<b>3- A.Nurmonov</b>	 -C
<b>4- V. Gumbold</b>	 -D



5.A.A.Reformatskiy



**javobi:**

Javob:	1-B	2 -A	3 - E	4 – D	5-C
--------	-----	------	-------	-------	-----

**2. Subutiadir aning sakkiz sifoti,**

**Sifot zoti emas, na g'ayri zoti.**

**misralaridagi kabi UMIS va AHVO munosabati tasviri qaysi mutafakkirlarda uchrashinini juftlang.** 1) Alisher Navoiy; 2)Huvaydo; 3)So'fi Olloyor; 4)A.Jomiy; 5)Forobiy;6)Xorazmiy

**javobi:**

1,3,5	1,3	1,3,6	2,4,6	1,5	3,5	1,2,3,4,5
ha	ha	yo`q	yo`q	ha	ha	yo`q

**3. Gapning lisoniy sintaktik qurilish qolipi uchun ahamiyatsiz jihatlar qaysi ustundan joy olgan?**

1. Ifoda maqsadi. 2. Modal ma'nolar.	1.Gap bo'laklarining ifodalanish xususiyatlari. 2.Murakkablashtiruvchi vositalar.	1.Murakkablashtiruvchi vositalar. 2.Kesimning fe'l bilan ifodalanishi.	Kesimlik kategoriyasi bilan shakllangan atov birliginihg bo'lishi.
<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>

**javobi:**

A-1,2	B-1,2	C-1,2	D-1
+	+	+ <sub>-</sub>	- <sub>-</sub>

**4. Gapning [Pm] qismi to`g`ri joylashtirilmagan ustun mavjudmi?**

<b>№</b>	<b>Lug`viy ma'no ifdalovchi qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	
1	bora	ya	p	ma	n	A
2	o`q	i	sa	ng	iz	B
3	bor	yap	m	a	n	C
4	bil	ma	gan	di	m	D

**javobi:**

1-A	2-B	3-C	4-D
+	+	+	-

**5. Nutqqa xos xususiyatlarni to`g`ri ta`rif bilan juftlang.**

1	Xususiylik	A	Bir hoqisa hayotda ikkinchi hoqisani keltirib
---	------------	---	---

			chiqarar ekan, ikkinchisi ....dir.	
2	Hodisaviylik	B	U borliqning, undagi narsa, voqea-hodisalarning, shuningdek, til hodisalarining xilma-xilligini anglashga ko`maklashadi.	
3	Voqelik	C	Biz o`rganayotgan narsaning tashqi jihati	
4	Oqibat	D	U tegishli shart-shroit mavjud bo`lganda yuzaga chiqadi	
Javob:	1 -	2 -	3 -	4 -

**Javobi:**


Javob:	1-B	2 -C	3 -D	4 – A
--------	-----	------	------	-------

**6. Aniqlovchi gapdagi barcha bo'laklarni kengaytirishi mumkinmi?**

- A. eganing kengaytiruvchisi : *A'lochi Tohir keldi.*
- B. kesimning kengaytiruvchisi: *Sen ilg'or o'qituvchisan.*
- C. holning kengaytiruvchisi: *U azim shaharda yashaydi.*
- D. to'ldiruvchining kengaytiruvchisi: *Aqlli bolalarni sevaman.*

**Javobi: A**

**7. Ushbu chizma nimani ifodalaydi?**



- A. gapning barcha bo`laklarini
- B. gapning maksimal qolipini
- C. gapning minimal qolipini
- D. ega, kesim va holni

**Javobi: A**

**8. Quyidagi so`roq gaplarni ifodalayotgan ma'nolari bilan juftlang.**

<b>1</b>	<i>Kitobni o`qidingmi?</i>	<b>A</b>	So`roq-buyruq
<b>2</b>	<i>Yozda ham shunday yomg`ir yog`i mumkinmi?</i>	<b>B</b>	So`roq-taxmin
<b>3</b>	<i>Halim tugatdimi-a?</i>	<b>C</b>	So`roq-mamnunlik
<b>4</b>	<i>U ijod bilan shug`ullanmaydimi?</i>	<b>D</b>	So`roq-taajjub
<b>5</b>	<i>Tezroq jo`namaysizmi?</i>	<b>E</b>	So`roq

**Javobi:**

1-E	2 -D	3 -C	4 – B	5-A
-----	------	------	-------	-----

**9. 1)Kishilar o`rtasidagi aloqa, muomala; 2) narsa-hodisalar o`rtasidagi ozaro bog`lanish, aloqa; 3) kishining voqelilikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashishi. Bular arab tilidan olingan quyidagi qaysi bir so`z ma`nosiga to`g`ri keladi?**

<b>1</b>	kishilar o`rtasidagi aloqa, muomala	<b>A</b>	holat
<b>2</b>	narsa-hodisalar o`rtasidagi ozaro bog`lanish aloqa	<b>B</b>	analiz
<b>3</b>	kishining voqelilikdagi narsalarga	<b>C</b>	munosabat

	yondashishi		
4	hodisalarni tahlil etish	<b>D</b>	munosabat
5	bir-biriga qarash	<b>E</b>	munosabat

**Javobi:**

1-E	2 -D	3 -C	4 – B	5-A
-----	------	------	-------	-----

10. Quyida berilganlarni jadval asosida til birliklari, nutq birliklari va tafakkur birliklariga ajrating.

1)Tovush, 2)harf, 3)hukm, 4)qo'shimcha, 5)qo'shma so'z, 6)so'z birikmasi, 7)morfema, 8)o'zak, 9)leksema, 10)paradigma, 11)semema, 12)ibora, 13) frazema, 14)yasama 15)so'z, 16)qolip, 17)ong, 18) fikr, 19)matn, 20)sitata, 21)tasviriy ifoda, 22)fonema, 23)grafema, 24)nomema, 25)hosila.

Tilshunoslik birliklari	Javob raqamlari
Til birliklari	
Nutq birliklari	
Tafakkur birliklari	

**Javobi:**

Tilshunoslik birliklari	Javob raqamlari
Til birliklari	7,9,11,13,16,22,23,24,
Nutq birliklari	1,2,4,5,6,8,12,14,15,19,20,21,25
Tafakkur birliklari	3,10,17,18,

**ORALIQ NAZORAT VA MUSTAQIL TA'LIM UCHUN NOSTANDART  
TEST NAMUNALARI**

1. Falsafa va fanda ilmiy bilishning qaysi bosqichi farqlanadi va ularni xususiyatlari bilan juftlang.

<b>1. Fahmiy</b>	<b>2. Amaliy</b>	<b>3. Nazariy</b>	<b>4. Mantiqiy</b>	<b>5. Empirik</b>	<b>6. Idrokiy</b>	<b>7. Dialektik</b>
------------------	------------------	-------------------	--------------------	-------------------	-------------------	---------------------

**javobi:**

1,6	1,4,	5,4	2,4	5,7	5,6	2,3
ha	yo`q	yo`q	yo`q	ha	yo`q	ha

**2. AHVOga tegishli xususiyatlarni toping.**





<b>1. Moddiylikdan xoli</b>	<b>2. Betakror</b>	<b>3. Cheksiz</b>	<b>4. Takrorlanuvchan</b>	<b>5. Moddiylikka ega</b>
-----------------------------	--------------------	-------------------	---------------------------	---------------------------

**javobi:**

2,3,5	1,2	1,3,5	2,3	2,5	3,5	1,2,3,4,5
ha	yo`q	yo`q	ha	ha	ha	yo`q

**3. "Gap modeli bu bir andaza, bu andaza asosida muayyan bir gap emas, balki bir necha har xil gaplar tuziladi". Ushbu fikr qaysi tilshunos olimga tegishli ?**

<b>1. "Gap modeli bu bir andaza, bu andaza asosida muayyan bir gap emas, balki bir necha har xil gaplar tuziladi"</b>	 <b>B. De Kurtene</b>	<b>A</b>
---	---	----------




2.“Gap modeli bu bir andaza, bu andaza asosida muayyan bir gap emas, balki bir necha har xil gaplar tuziladi”	 <p>F.Sosyur</p>	B
3.“Gap modeli bu bir andaza, bu andaza asosida muayyan bir gap emas, balki bir necha har xil gaplar tuziladi”	 <p>A.Nurmonov</p>	C
4.“Gap modeli bu bir andaza, bu andaza asosida muayyan bir gap emas, balki bir necha har xil gaplar tuziladi”	 <p>V. Gumbold</p>	D
5.“Gap modeli bu bir andaza, bu andaza asosida muayyan bir gap emas, balki bir necha har xil gaplar tuziladi”	 <p>A.A. Reformatskiy</p>	E

**javobi:**

Javob:	1+B	2 -A	3 - C	4 – D	5-E
--------	-----	------	-------	-------	-----

4. Berilgan tilshunos olimlarning rasmlari va ismi shariflarini to`g`ri juftlang.

1-B.De Kurtene	 <p>-A</p>
----------------	---

2- F.Sosyur	 -B
3- A.Nurmonov	 -C
4- V. Gumbold	 -D
5.A.A.Reformatskiy	 -E

**javobi:**

Javob:	1-B	2 -A	3 - E	4 – D	5-C
--------	-----	------	-------	-------	-----

**5. Subutiidir aning sakkiz sifoti,**

**Sifot zoti emas, na g'ayri zoti.**

**misralaridagi kabi UMIS va AHVO munosabati tasviri qaysi mutafakkirlarda uchrashinini juftlang.** 1) Alisher Navoiy; 2)Huvaydo; 3)So'fi Olloyor; 4)A.Jomiy; 5)Forobiy;6)Xorazmiy

**javobi:**

1,3,5	1,3	1,3,6	2,4,6	1,5	3,5	1,2,3,4,5
-------	-----	-------	-------	-----	-----	-----------



ha	ha	yo`q	yo`q	ha	ha	yo`q

6. Quyidagi jadvalning qaysi katagi to`g`ri to`ldirilgan?

1.Qarashlilik	2.Butun-bolak	3.Tur-jins	4.Bajaruvchi va harakat munosabati	5.Xoslik
<i>A.Ahmadning kitobi</i> <i>Dildoraning orzusi</i>	<i>B.daftarning varag`i, olmaning yarmi</i>	<i>C.qushning urg`ochisi nonning yarmi</i>	<i>D.talabaning o`qishi, maktabning bog`i</i>	<i>E.go`sht do`koni qishning sovug`i</i>

javobi:

1-A	2-B	3-C	4-D	5-E
+	+	-	-	+

7. Gapning lisoniy sintaktik qurilish qolipi uchun ahamiyatsiz jihatlar qaysi ustundan joy olgan?

1. Ifoda maqsadi. 2. Modal ma'nolar.	1.Gap bo`laklarining ifodalanish xususiyatlari. 2.Murakkablashtiruvchi vositalar.	1.Murakkablashtiruvchi vositalar. 2.Kesimning fe`l bilan ifodalanishi.	Kesimlik kategoriyasi bilan shakllangan atov birliginihg bo`lishi.
<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>

**javobi:**

A-1,2	B-1,2	C-1,2	D-1
+	+	+	-

**8. Gapning [Pm] qismi to`g`ri joylashtirilmagan ustun mavjudmi?**

<b>№</b>	<b>Lug`viy ma'no ifdalovchi qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	<b>[Pm]qism</b>	
1	bora	ya	p	ma	n	A
2	o`q	i	sa	ng	iz	B
3	bor	yap	m	a	n	C
4	bil	ma	gan	di	m	D

**javobi:**

1-A	2-B	3-C	4-D
+	+	+	-

**9. Tilga xos xususiyatlarni to`g`ri ta`rif bilan juftlang.**

1	Umumiylik	A	biz o`rganayotgan narsa, voqea-hodisa, tushunchaning ichki xossalari, ma`nosi va vazifasi
2	Mohiyat	B	Bir hoqisa hayotda ikkinchi hoqisani keltirib

			chiqarar ekan, birinchisi .....	
3	Imkoniyat	C	...borliqning, undagi narsa, voqea-hodisalarning, shuningdek, til hodisalarining birligini anglashga ko`mklashadi	
4	Sabab	D	Tegishli shart-shroit mavjud bo`lgan taqdirdagina, biror narsa, voqelik paydo bo`lib, reallikka aylanadi. Bu shart-shroitlarning yig`indisi narsa yoki voqelikning vujudga kelish .....dir.	
Javob:	1 -	2 -	3 -	4 -

**Javobi:**

Javob:	1-C	2 -A	3 -D	4 – B
--------	-----	------	------	-------

**10. Nutqqa xos xususiyatlarni to`g`ri ta`rif bilan juftlang.**

1	Xususiylilik	A	Bir hoqisa hayotda ikkinchi hoqisani keltirib chiqarar ekan, ikkinchisi ...dir.	
2	Hodisaviylilik	B	U borliqning, undagi narsa, voqea-hodisalarning, shuningdek, til hodisalarining xilma-xilligini anglashga ko`mklashadi.	
3	Voqelik	C	Biz o`rganayotgan narsaning tashqi jihati	
4	Oqibat	D	U tegishli shart-shroit mavjud bo`lganda yuzaga chiqadi	
Javob:	1 -	2 -	3 -	4 -

**Javobi:**

Javob:	1-B	2 -C	3 -D	4 – A
--------	-----	------	------	-------

11. “Bahor keldi” gapining variant qolipini aniqlang ?

- A. [E<sup>+</sup>II WP<sub>m</sub> Y].
- B. [E<sup>-</sup>II WPM Y].
- C. [E<sup>+</sup>II WP<sub>m</sub> Yo].
- D. [WP<sub>m</sub>].


**Javobi: A**

12. Aniqlovchi gapdagi barcha bo'laklarni kengaytirishi mumkinmi?

- A. eganing kengaytiruvchisi : *A'lochi Tohir keldi.*
- B. kesimning kengaytiruvchisi: *Sen ilg'or o'qituvchisan.*
- C. holning kengaytiruvchisi: *U azim shaharda yashaydi.*
- D. to'ldiruvchining kengaytiruvchisi: *Aqlli bolalarni sevaman.*

**Javobi: A**

13. Ushbu chizma nimani ifodalaydi?




- A. gapning barcha bo'laklarini
- B. gapning maksimal qolipini
- C. gapning minimal qolipini

D. ega, kesim va holni

**Javobi: A**

**14. “Kesimlik kategoriyasining valentlikka ta`siri” ifodalangan chizmada qaysi kesmada xatolik bor?**



**Javobi:**

1-A	2-B	3-C	4-D	5-E
+	+	+	+	-

**15. Mavjud sodda gaplarning qaysi qatorlarida teng bog`lanish mavjud?**

1.Siz tadbirkorsiz.

2.Mening diqqatimni dumaloq oppoq toshlar tortdi

3.Go`yo Mir Alisher Navoiy qarshimda edi.

4.Suv o`ynoqlab, ko`piklanib oqardi.

5.Nasibaning va Karimaning opalari keldi.

6. Aziz do'stlar, yurtdoshlar, sizlarni sog'inib yashadim.

- A. 4,5,6
- B. 1,2,4
- C. 3,4,5
- D. 1,5,6

**Javobi: A**

16. Quyidagi so'roq gaplarni ifodalayotgan ma'nolari bilan juftlang.

1	Kitobni o'qidingmi?	A	So'roq-buyruq
2	Yozda ham shunday yomg'ir yog'ishi mumkinmi?	B	So'roq-taxmin
3	Halim tugatdimi-a?	C	So'roq-mamnunlik
4	U ijod bilan shug'ullanmaydimi?	D	So'roq-taajjub
5	Tezroq jo'namaysizmi?	E	So'roq

**Javobi:**

1-E	2 -D	3 -C	4 – B	5-A
-----	------	------	-------	-----

17. Quyidagilardan qay biri uyushiq kesimli sodda gap struktur sxemasini beradi?

- A.  $[(W_1 - W_2)P_m]$
- B.  $[WP_m]$
- C.  $[[WP_m]-[WP_m)]-[WP_m]]$
- D.  $[((E_1 - W_2)-(E_2 - W_2)) P_m]$

**Javobi: A**

18. Sintaksisning asosiy birliklarini aniqlang.

A. Soʻz birikmasi, sodda gap, qoʻshma gap.

B. Gap, aniqlovchi, soʻz qoʻshilmasi.

C. Sodda gap, qoʻshma gap, oʻzga gap.

D. Aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol.

**Javobi: A**

**19. Nutqiy sintaktik birliklarga xos xususiyatlarni belgilang.**

A. Bevosita kuzatishda berilganlik, oʻzgaruvchanlik, takrorlanuvchanlik, cheklanmaganlik.

B. Tasodifiylik, oʻzgarmaslik, rang-baranglik, cheklanmaganlik.

C. Oʻzgaruvchanlik, umumiylik, cheksizlik.

D. Cheksiz miqdorda takrorlanish, tasodifiylik, oʻzgarmaslik.

**Javobi: A**

**20. Quyidagi gaplar qaysi qolipning voqelanishi?**

**Yetti oʻlchab, bir kes. Salima eshitib, yozib oʻtirdi.**

A.  $[E^{-}IIWpMYo], [S_1(W_1+W_2) Pm]$ .

B.  $[O^{b.k} \sim O^{e.k}] = SB, [I^{k.k} \sim I^{k.k}] = SB$ .

C.  $[E + K] = Gap, [T \sim H] = SB$ .

D.  $[WPm] = SG, [O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ .

**Javobi: A**

**21. 1) Kishilar oʻrtasidagi aloqa, muomala; 2) narsa-hodisalar oʻrtasidagi ozaro bogʻlanish, aloqa; 3) kishining voqelilikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashishi. Bular arab tilidan olingan quyidagi qaysi bir soʻz maʼnosiga toʻgʻri keladi?**

1	kishilar o'rtasidagi aloqa, muomala	A	holat
2	narsa-hodisalar o'rtasidagi ozaro bog'lanish aloqa	B	analiz
3	kishining voqelilikdagi narsalarga yondashishi	C	munosabat
4	hodisalarni tahlil etish	D	munosabat
5	bir-biriga qarash	E	munosabat

**Javobi:**

1-E	2 -D	3 -C	4 – B	5-A
-----	------	------	-------	-----

**22. Sintaksis atamasini 2 ma'noda tushunish mumkin. Qaysilar ?**

A. tilning grammatik qurilishi ma'nosida; tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi grammatikaning bir qismi ma'nosida.

B.tilning sintaktik qurilishi ma'nosida; tilning sintaktik qurilishi o'rganishdagi grammatikaning bir qismi ma'nosida; tilning morfologik qurilishini o'rganishdagi grammatikaning bir qismi ma'nosida.

C. gapning sintaktik qurilishi ma'nosida; tilning sintaktik qurilishini o'rganadigan morfologiyaning bir qismi ma'nosida

D.tilning sintaktik qurilishi ma'nosida; gapning sintaktik qurilishini o'rganadigan morfologiyaning bir qismi ma'nosida.

**Javobi: A**

**23. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri? Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini yozing.**



A. Tildan foydalanish fikrni shakllantirish va bayon qilishdan iborat. Bu esa gap orqali amalga oshar ekan, demak, til yaxlit vujud sifatida sintaksisda namoyon bo‘ladi.

B. Kishi ongidagi fikr tushunchalar asosida tiklanadi. Fikr nutqda gap sifatida yuzaga chiqadi.

C. Tilning asosiy vazifasi – kishilar muloqotida vosita bo‘lib xizmat qilish. Axborot uzatish va qabul qilish vositasi bo‘lish – tilning kommunikativ mohiyati.

D. Gap sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi.

E. Gapni so‘z, so‘z birikmasidan farqlovchi belgi uning maxsus morfologik ko‘rsatkichi–kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllanganligi.

F. Kesimlik shaklining boshqa morfologik shakllardan farqi – uning bir necha ichki kategoriyalarning qorishishidan hosil bo‘ladigan murakkab tabiatga egaligi. Aniqrog‘i, kesimlik kategoriyasi kesim vazifasini birgalikda qaror toptiruvchi – shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl kategoriyalari sintezidan iborat.

G. Nutqiy gapning muhim belgilaridan biri – uning tugallanmagan ohangga ega bo‘lishi.

#### **Javobi:**

A	B	C	D	E	F	G
ha	ha	ha	ha	ha	ha	yo`q

#### **24. Quyida berilganlarni jadval asosida til birliklari, nutq birliklari va tafakkur birliklariga ajrating.**

1)Tovush, 2)harf, 3)hukm, 4)qo‘shimcha, 5)qo‘shma so‘z, 6)so‘z birikmasi, 7)morfema, 8)o‘zak, 9)leksema, 10)paradigma, 11)semema, 12)ibora, 13) frazema, 14)yasama 15)so‘z, 16)qolip, 17)ong, 18) fikr, 19)matn, 20)sitata, 21)tasviriy ifoda, 22)fonema, 23)grafema, 24)nomema, 25)hosila.

Tilshunoslik birliklari	Javob raqamlari
Til birliklari	
Nutq birliklari	
Tafakkur birliklari	

**Javobi:**

Tilshunoslik birliklari	Javob raqamlari
Til birliklari	7,9,11,13,16,22,23,24,
Nutq birliklari	1,2,4,5,6,8,12,14,15,19,20,21,25
Tafakkur birliklari	3,10,17,18,

**25. Berilgan gaplarga mos kesim qo'ying. Kesimlik shakllariga e'tibor bering.**

1	Dunyoda kechayotgan tabiat tanazzulini o'ylasam, dilim tubidan bir nido ...	A	darig` tutadi
2	Qurumsoq tabassumini ham o'zgalardan...	B	keladi
3	Begona yurt osmonidagi quyosh ham musofirga g'arib...	C	qondirilmaydi
4	Eng xosiyatli buloq — ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik...	D	qaraydi
5	U tavbaning kuchiga ishongani uchun ham dahriylik ko'chasiga...	E	kirdi

**Javobi:**

1-B	2 -A	3 -D	4 – C	5-E
-----	------	------	-------	-----

**26. Mazkur LSQlarni kengayish asosida darajalanishini aniqlang:**

1)uyushiq kesimli sodda gap:  $[(W_1 - W_2)P_m]$ ; 2)sodda gap:  $[WP_m]$ ; 3)uyushgan qismli qo'shma gap:  $[(WP_m) - [WP_m)] - [WP_m]$ ; 4) qo'shma gap:  $[WP_m - WP_m]$ ; 5) uyushgan gap:  $[(E_1 - W_2) - (E_2 - W_2)) P_m]$ .



**Javobi:**



**27. Kesimning [W] ga ko'ra turlari joylashuvini to'g'rilang.**

1.Ot	issiq	A
2.Sifat	o'qituvchi	B
3.Son	o'sha	C
4.Olmosh	oltita	D
5.Ravish	g'uj-g'uj	E
6.Taqlid so'z	doimo	F
7.Fe'l	kelmoq	G

**Javobi:**


1-B	2 -A	3 -D	4 - C	5-F	6-E	7-G
-----	------	------	-------	-----	-----	-----

**28. Tushunchlar raqamini ularning izohi bilan juftlashga harakat qiling.**

1	<b>Darak gap</b>	A	Sodda gap bilan mustahkam bog'langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot miqdori va sifati nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma.
2	<b>Co'roq gap</b>	B	Xabar berish, biror hodisa yoki dalilni tasdiqlash xususiyatiga ega bo'ladi.
3	<b>Buyruq gap</b>	D	Gapdagi ma'lum bir so'zni ajratib ko'rsatadi. Bu bilan u mantiqiy urg'uga o'xshab ketadi.
4	<b>Aktual tuzilish</b>	E	Gapning axborot vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi.
5	<b>Emfatik emotsional urg'u</b>	F	Tinglovchini biror predmetga biror ishni bajarishga undash, buyurish, qistash ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi.
6	<b>Qo'shma gap</b>	H	So'roq ma'nosiga boshqa ma'no ham qo'rishgan holda bo'lishi mumkin.

**Topshiriq javobi:** 1 –B; 2 – H; 3 – F; 4 – E; 5 – D; 6 –A

## 29. Sodda gap qolipi va uning turlarini klasterda ifodalang.



1. Bolalarimizni yoshligidan kattani hurmat qilishga o'rgatishimiz zarur.
2.  $[WP_m]$  gap kengaytiruvchilari bilan kengayadi.
3. Uning tarkibi faqat kesimdan iborat bo'ladi.
4. Maqsadim – o'qimoq.
5. Odatda uning kesimi majhul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi.
6. Ukam universitetda o'qiydi.
7. Bu turdagi gaplarning kesimidan hamisha egani tiklash mumkin.
8. Bugun stadionga boriladi.
9. So'z kengaytiruvchilariga ega bo'ladi.
10. Bu turdagi gaplarda har ikkala gap kengaytiruvchisi ishtirok etadi.

11. Poyezd Toshkentga yaqinlashdi.
12. Bu turdagi gaplar nutqiy bosqichda ixcham gaplarni yuzaga keltiradi.
13. O'n minut qadar yo'l yurildi. (Oyb.)
14. Bu sodda gapning maksimal qolipi hisoblanadi.
15. Sherzod yulduzni benarvon uradigan yigit.
16. Bu turdagi gapni olim M. Qurbonova o'rgangan.
17. Jizzaxga borish uchun Samarqanddan o'tiladi.
18. Bu turdagi gaplarda faqat bitta gap kengaytiruvchisi ishtirok etadi.
19. Bahor keldi seni so'roqlab.
20. Institutning o'ttiz yili davomida ulkan yutuqlarga erishildi.
21. Bu turdagi gaplar nutqiy bosqichda kengaygan gaplarni yuzaga keltiradi.
22. Yigit kishining uyalgani – o'lgani.
23. Bunday gaplarda ega tiklanmaydi.
24. Men bugun erta turib tongni ro'rdim.

**Jaboblari:**

**[IWPm]=SG: 3,5,23, 12      Hosila: 8,13,17,20 [IIWPm]=SG:21,7, 9,18**

**Hosila: 1,4,15,22**

**[E+H+WPm] = SG:2,10,14,16      Hosila:6,11,19,24,**

## **Talaba mustaqil ishini baholash**

Amaldagi 2018-yil 9-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq talabaning kurs ishi bo‘yicha bilimini o‘zlashtirish darajasi “5” baholik tizimda baholanadi. Jumladan,

–talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **“5” (“a’lo”)** baho;

–talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **“4” (“yaxshi”)** baho;

–talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni umumiy tarzda tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha o‘rtacha tasavvurga ega deb topilganda – **“3” (“qoniqarli”)** baho;

–talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **“2” (“qoniqarsiz”)** baho bilan baholanadi.

Mustaqil ta’lim baholarini talabaning oraliq nazorati sifatida singdirish, bizningcha, o‘rinli.

Mustaqil ta’lim bo‘yicha “2” (“qoniqarsiz”) baho bilan baholangan talaba fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kiritilmaydi. Yakuniy nazoratga kirmagan talaba akademik qarzidor hisoblanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 20 апрелдаги № 2909 - сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2017 йил 20 майдаги №304 сонли Қарори. – "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами".
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул

қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-сон Қарори.

4. Олий таълимнинг Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари тўплами. –Т., 2013.

5. 2018-yil 9-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom”.

6. Mamadiyurov O., Abduxalilova S. Kurs ishlarini bajarish yuzasidan uslubiy ko‘rsatma. (Oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishi 1-kurs talabalari uchun) –Т.: Iqtisod-moliya, 2019 -33 b.

7. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. –С.88.

8. Yo‘ldosheva D., Yusupova D. Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar .Metodik qo‘llanma.–Toshkent: Paradigma, 2018.–48 b.

<http://moodle.pharmi.uz/> mustaqil ta’lim mashgulotlari

<http://www.lex.uz>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.gov.uz>

FOR AUTHOR USE ONLY



FOR AUTHOR USE ONLY

**More  
Books!**



yes  
**I want morebooks!**

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**



[info@omniscryptum.com](mailto:info@omniscryptum.com)  
[www.omniscryptum.com](http://www.omniscryptum.com)

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY